

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**60910400 – “TIBBIY PROFILAKTIKA ISHI”  
(Vrach gigienist-epidemiolog) ta‘lim yo‘nalishining  
MALAKA TAVSIFNOMASI**

**Toshkent – 2021**

## ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi

## TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil «16» avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 217 - sonli buyrug'ining 3 ilovasi bilan tasdiqlangan.

## JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.



## MUNDARIJA

1.	<b>Umumiy qoidalar</b> .....	5
1.1	Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan.....	5
	<b>60910400 – “TIBBIY PROFILAKTIKA ISHI” ta'lim yo'nalishi</b>	
1.2	<b>(vrach gigienist-epidemiolog) bo'yicha</b> malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi.....	7
1.3	Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan.....	7
1.4	<b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> malaka tavsifnomasi ishlatiladi.....	8
1.5	<b>Vrach gigienist-epidemiologning</b> kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari.....	8
2.0	<b>Vrach gigienist-epidemiologiga</b> malaka tavsifnomasi.....	9
2.1	<b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> bilimi.....	9
2.2	<b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> ko'nikmasi.....	10
2.3	Asosiy nazariy bilimlar	
	<b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> bilishi kerak.....	11
3	Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) <b>Vrach gigienist-epidemiologning o'rni</b> .....	11
3.1	<b>Vrach gigienist-epidemiologning</b> majburiyatlari.....	11
4.	<b>Sog'liqni saqlash birlamchi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy yordam hajmi</b> .....	12
4.1	Ko'rsatiladigan <i>tibbiy yordam</i> darajasiga ko'ra <b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> tomonidan bajariladigan faoliyat.....	12
4.2	<b>Vrach gigienist-epidemiologning</b> profilaktika, diagnostik va boshqa tadbirlarini o'tkazilishi ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati	
	<b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> ega bo'lishi shart amaliy ko'nikmalar	
5.	<b>Vrach gigienist-epidemiolog</b> quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.....	18
6.	<b>Vrach gigienist-epidemiologning</b> munosabatlariga ko'yilgan talablar .....	27
7.	<b>Uzluksiz kasbiy ta'lim va Vrach gigienist-epidemiologning attestatsiyasi</b> .....	28



## 1. UMUMIY QOIDALAR

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimini yaratishda eng muhim ustuvor yo‘nalish bu aholiga birlamchi tibbiy-profilaktika xizmatlarining keng imkoniyatlari, o‘z vaqtida va yuqori sifatini ta‘minlashdir. SHu maqsadda tashkil etilgan birlamchi zveno muassasalari ma‘lum darajada ko‘p muammolarni hal qilishga yordam berdi. Bugungi kunda aholi salomatligi uchun profilaktika masalalari, ayniqsa, vrach gigienist-epidemiolog bevosita jalb qilingan chekka joylarida sifatni yaxshilash talab etiladi.

Malaka tavsifnomasi – bu mutaxassisning shaxsi va kasbiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan umumlashtirilgan talablarni belgilaydigan davlat hujjati. Bu kasbiy tayyorgarlikni talab qiladigan muayyan ishlarni bajarish uchun tibbiyot xodimining shaxsiy salohiyati modeli.

Zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun vrach-gigienist epidemiologning ushbu malaka tavsifnomasi asosiy hujjatdir.

Malakaviy tavsif umumiylikni, vrach-gigienist epidemiolog o‘qitish va ishlashga qo‘yiladigan talablarni tartibga solishni (birlashtirilishini) ta‘minlaydi.

### **1.1.Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me‘yoriy hujjati bo‘lib, quyidagilar asosida tuzilgan:**

Malaka tavsifi gigienist-epidemiolog shifokorining tayyorgarligi va faoliyatiga birlashtirilgan, tizimlashtirilgan talablarni ta‘minlaydi.

### **Bu malaka tavsifi Davlat me‘yoriy hujjati quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi PQ-2956-sonli “Tibbiy ta‘lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi “SHoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4985-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 718-sonli "Tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida ko‘rilayotgan profilaktika choralarning samaradorligi uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida"gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5590-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi "O‘zbekiston Respublikasining birlamchi sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-2857-sonli qarori;





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy va farmatsevtik ta'lim va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentyabrdagi "Tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 769-sonli qarori.

2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash buyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6035-sonli farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi "YUqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari. to'g'risidagi" PQ-4063 – sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666-sonli "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi "**Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida**"gi 311-sonli buyrug'i.

**1.2. 60910400 – "Tibbiy profilaktika ishi" ta'lim yo'nalishi (Vrach gigienist-epidemiolog) bo'yicha malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi:**

- vrach gigienist - epidemiologning kasbiy vazifalari va faoliyatining asosiy sharoitlari;
- vrach gigienist-epidemiolog tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan kasbiy va ijtimoiy vazifalar, amaliy ko'nikmalar va bilim tizimi ko'rinishidagi malakaviy talablar;
- vrach gigienist-epidemiologlarni attestatsiyadan o'tkazish va litsenziya berilishiga qo'yiladigan talablar;
- tibbiyot oliy o'quv yurtlarida vrach gigienist – epidemiologlarni tayyorlash o'quv dasturini bir xil mazmunga keltirish, bu holat O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida vrach gigienist - epidemiologlarni tayyorlash sifati hamda uning faoliyati bo'yicha mas'uliyatni oshirish imkonini beradi;



- “qayta aloqa” mexanizmlarini joriy etilishini amalga oshirish uchun vrach gigienist - epidemiologning amaliy faoliyatini baholash mezonlarini.

### **1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi mo‘ljallangan:**

- tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari, sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari (qishloq vrachlik punkti (QVP), qishloq oilaviy poliklinika (QOP), ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika (KTMP), tez tibbiy yordam stansiyalari);
- sog‘liqni saqlash vazirligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi;
- tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha oliy tibbiy ta‘lim muassasalari;
- **60910400** – “**Tibbiy profilaktika ishi**” yo‘nalishi ishi bo‘yicha tibbiyot OO‘YU talabalari ta‘lim oladigan vazirliklar, idoralar, korxonalar va muassasalar, sanitariya – profilaktik muassasalar va ilmiy tekshirish institutlarining o‘quv bazalari;
- jamoat, kasaba uyushma va boshqa tashkilotlar;
- **5510300** – tibbiy – profilaktika yo‘nalishi ishi bo‘yicha tibbiy oliy o‘quv yurtlari talabalari.

### **1.4. Vrach gigienist-epidemiolog malaka tavsifnomasi ishlatiladi:**

- Vrach gigienist-epidemiolog uchun mashg‘ulotlar maqsadi va mazmuni;
- Vrach gigienist-epidemiologning kasbiy bilim va ko‘nikmalar darajasi;
- tibbiy va tibbiy-ijtimoiy yordamning kafolatlangan hajmi.

#### **kafolatlanadi:**

- Vrach gigienist-epidemiologlarini o‘qitish va tematik takomillashtirish dasturlari;
- ta‘limning turli bosqichlarida talabalar va shifokorlar tayyorlash sifatini baholash mezonlari;
- Vrach gigienist-epidemiologlarini sertifikatlash uchun standart talablar;
- sanitar-gigienik tekshirish, profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish, kuzatuv standartlari.

#### **tashkillashtiriladi:**

- jarayonni o‘rganish;
- tibbiy oliy o‘quv yurtlariga da‘vogarlarini kasbiy yo‘naltirish.

#### **o‘tkaziladi:**

- bitiruvchilarni sertifikatlash.

#### **hujjatlashtiriladi:**

- muassasalar va tashkilotlar bilan gigienist-epidemiolog shifokorlarini o‘qitish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma-buyurtmalar;
- gigienist-epidemiolog shifokorini yollashda mahalliy hokimiyat bilan tuzilgan mehnat shartnomalari.

Malaka tavsifnomasi, gigienist-epidemiolog shifokorlarini tayyorlash uchun kafolatlangan kasbiy minimumni aks ettiruvchi davlat tomonidan tartibga solinadigan talablar bilan bir qatorda, mutaxassisning buyurtmachi tashkilotlarining o‘ziga xos



sharoitida, ma'lum bir universitet bitiruvchilarini tayyorlash darajasiga qo'yiladigan malaka talablarining mintaqaviy va tarmoq xususiyatlarini o'z ichiga olishi mumkin.

### **1.5. Vrach gigienist-epidemiologning kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari:**

**Vrach gigienist - epidemiolog** bu aholining yaxlit hamda alohida yosh – jins va ijtimoiy - kasbiy guruhlari salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ma'muriy hudud ob'ektlarida, insoniyat yashash muhitini himoya qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni asoslash, ishlab chiqish va amalga oshirish ko'rinishida davlat sanitariya nazoratini o'tkazish bo'yicha zarur bo'lgan nazariy hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, keng yo'nalishli malakali vrachdir.

**Vrach gigienist – epidemiolog** aholining sanitariya – epidemiologik osoyishtaligi sohasida o'z kasbiy faoliyatini Sog'liqni saqlash Vazirligi tizimidagi davolash – profilaktika muassasalariga tegishli yo'nalishdagi tuzilmalarining ma'muriy - hududiy ob'ektlarida olib boradi:

- sanitariya epidemiologiya xizmati hududiy organlarida;
- orttirilgan immuntanqisligi sindromi (OITS) bilan kurashish markazlarida;
- o'lat, karantin va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi markazlarida;
- dezinfeksion stansiyalar, sanitariya – nazorati va sanitariya – karantin punktlari va boshqalarda;

- sog'liqni saqlash tizimidagi organlar va muassasalarida oliy tibbiy ma'lumotli mutaxassis lavozimlarining namunaviy nomenklaturalarida nazarda tutilgan tegishli lavozimlarda 5510300 – “Tibbiy – profilaktika ishi” yo'nalishi bo'yicha – **Vrach gigienist-epidemiolog**;

- sog'liqni saqlashning boshqaruv organlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim, o'quv muassasalari, ITI ma'muriy, ilmiy va pedagogik faoliyatda 5510300 – “Tibbiy – profilaktika ishi” yo'nalishi bo'yicha oliy tibbiy mutaxassislar lavozimlari namunaviy nomenklaturasida ko'rsatib o'tilgan tegishli lavozimlarda ishlaydilar.

## **2.VRACH GIGIENIST-EPIDEMIOLOGIGA MALAKA TAVSIFNOMASI**

### **2.1. Vrach gigienist – epidemiolog bilimi:**

- fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, katta yoshdagi shaxslarni himoya qilish, atrof va ishlab chiqarish muhitini muhofaza qilish bo'yicha qonunchilikning asosiy holatlari, sog'liqni saqlashning sanitariya – profilaktika muassasalari tarkibi hamda tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishning asosiy tamoyillarini bilishi lozim;

- etika va deontologiyaning asosiy tamoyillarini bilishi va ularga rioya qilishi, mahalliy va jahon tibbiyoti hamda madaniyati sohasida bilimdon bo'lishi, sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigienik talablarga rioya etilishini nazorat qilish vaqtida muhim masalalarni hal etishda rahmdil, jismonan va ma'naviy jihatdan sog'lom, vijdonli va o'z fikriga ega bo'lmog'i, o'z huquqlari va majburiyatlarini bilishi, tarbiyaviy ishlarning ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;



- epidemiologiyaning umumiy qonunlari va kategoriyalari, yuqumli kasalliklarning tibbiy-biologik tavsifnomasi, ularning epidemiologiyasi va epidemiologik jarayonning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni bilishi lozim;

- turli xavf omillarining aholi salomatlik holatiga ta'sirining o'ziga xosligi, ekologik noqulay sharoitlarda bo'lgan tumanlarda ularning insonga bo'ladigan nomaqbul ta'sirini kamaytirish bo'yicha gigienik va epidemiologik chora – tadbirlar o'tkazishni bilishi lozim;

- aholining kasallanishini yaxlit tarzda, alohida yosh – jins va kasbiy guruhlarda o'rganishning asosiy uslubiy yondoshuvlarini bilishi lozim;

- yuqumli kasalliklar, OITS, zooantroponozlar, o'ta xavfli va karantin kasalliklarda epidemiologik nazoratni tashkil etish tizimini bilishi lozim;

- profilaktik tibbiyotning asosiy ilmiy – amaliy muammolari va rivojlanish istiqbollari hamda ilmiy – texnik progress davrida uning o'rnini tushunishi lozim;

- jamoat salomatligining asosiy usullariga ega bo'lishi va ijtimoiy sohani rivojlantirishning milliy va davlat dasturlarining (“Sog'lom avlod uchun”, “Sog'lom ona va bola”) bajarilishiga tegishli bo'lgan profilaktik tadbirlarni rejalashtirishni bilishi lozim;

- nazorat ostidagi ob'ektlarda (ishlab chiqarish, kommunal, bolalar va o'smirlar, ovqatlanish va tashqi muhit) etakchi zararli va xavfli omillarni miqdor jihatdan aniqlashning asosiy usullariga ega bo'lishi, xavf omillarining optimal va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajalarini qat'iy tartibga soluvchi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos ravishda baholay olishi lozim;

- o'z faoliyatining asosiy turlarini tashkil etish, rejalashtirish va tahlil qila olish, aholining sanitariya-epidemiologik xotirjamligi sohasida boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

- nazorat ostidagi turli ob'ektlarda ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o'tkaza olish va aholi kasallanishini oldini olish va kamaytirish hamda tashqi inosonni o'rab olgan muhitni muhofaza qilish bo'yicha profilaktik chora– tadbirlarni ishlab chiqishni bilishi lozim;

- atrof va ishlab chiqarish muhitining holatiga bog'liq tarzda yosh – jins va ijtimoiy – kasbiy guruhlarni hisobga olib, aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash bo'yicha chora – tadbirlarni asoslab berish va tashkil eta olishi lozim.

## **2.2. Vrach gigienist-epidemiolog ko'nikmasi:**

- insonning hayoti jarayonida uning fiziologik funksiyalarini shakllantirish va tartibga solish, baholash va tushuntirish;

- kasalliklarning rivojlanishining oldini olish uchun sanitariya-ma'rifiy ishlarni olib borish;

- kasalliklarning kelib chiqishida rol o'ynaydigan xavf omillarini aniqlashga qaratilgan profilaktika ishlarini olib borish;

- malaka tavsiflari talablariga javob beradigan hajmda o'z vaqtida sanitar tekshirish o'tkazish, profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

- emlash;

- tibbiy hujjatlarning buxgalteriya hisoboti va hisobot shakllarini yuritish;



- mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish.

### **2.3. Asosiy nazariy bilimlar**

#### **Vrach gigienist-epidemiolog bilishi kerak:**

- aholi o'rtasida eng ko'p uchraydigan kasalliklarning oldini olish prinsiplari va ularni profilaktika qilish usullariga ega bo'lishi;
- atrof muhit ob'ektlarini sanitar-gigienik tekshirish;
- reja tuzish va laboratoriya-instrumental tekshirish usullarining ma'lumotlarini talqin qilish;
- 10-xalqaro tasnif talablariga muvofiq aholi o'rtasida kasallanishni tarqalishini o'rganish;
- rejalashtirilgan profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini gigienik baholashni amalga oshirish;
- tashqi va ishlab chiqarish muhit ob'ektlarini laboratoriya tekshirishlaridan o'tkazish;
- "Dalillarga asoslangan tibbiyot"ning asosiy prinsiplarini qo'llash;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ekspertizasi natijalarini tahlil qilish.

## **3. AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH VA KASALLIKLARNING OLDINI OLISHDA (PROFILAKTIKASIDA) VRACH GIGIENIST – EPIDEMIOLOGNING O'RNI**

### **3.1. Vrach gigienist – epidemiologning majburiyatlari:**

Joriy va ogohlantiruvchi sanitariya nazoratini olib borishda belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga davlat idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslarni rioya etishlarini ta'minlash;

Aholining sanitar-epidemik xavfsizligini ta'minlashga doir normativlar bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni, ularga rioya etilishi ustidan nazorat qilish usullarini, zararli mahsulot va chiqitlarni zararsizlantirish yo'llarini ishlab chiqishlari hamda tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachiga taqdim etadi.

Yuqumli va parazitar kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, kasb kasalliklari, zaharlanishlar va baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasa, tashkilot va birlashmalarning xodimlari dastlabki hamda davriy tibbiy ko'rikdan o'tishlarini muntazam nazorat etib borishlari shart.

Yuqumli va parazitar kasalliklar o'choqlarida karantin-tashkiliy va profilaktika tadbirlarni o'tkazish, kasallikka chalingan bemorlarni kasalxonalariga yotqizish tartibi va muddatlarini tegishli hududlardagi hokimiyat va boshqaruvning mahalliy idoralari hamda bosh davlat sanitariya vrachlari belgilaydilar.

Aholi va alohida shaxslar salomatligi va kasallanish holatini maxsus ekspertiza qilishning sanitariya-gigiena, sanitariya-ekologiya, tibbiy, biologik, texnikaviy, sotsiologik va boshqa turlari, shuningdek loyiha, texnika hujjatlarini va boshqa



hujjatlarni, uskunalarni, asboblarni va apparatlarni, kimyoviy moddalarni, turli birikmalarni, materiallarni va muhitlarni, oziq-ovqat xom ashyosini va mahsulotlarini, sanoat buyumlarini, radioaktiv materiallarni, radiatsiya texnikasini sanitariya ekspertiza qilish.

#### **4.SOG‘LIQNI SAQLASH BIRLAMCHI TIZIMIDA KO‘RSATILADIGAN TIBBIY YORDAM HAJMI**

**4.1.Ko‘rsatiladigan profilaktik yordam turi darajasiga ko‘ra Vrach gigienist – epidemiolog tomonidan bajariladigan faoliyat:**

***-tibbiy – profilaktik faoliyati:***

- sanitariya qonunchiligining buzilishi, aholi salomatligiga ta’sir etuvchi xavfli omillarni aniqlash, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga qaratilgan majmuaviy sanitariya-gigienik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan - davlat sanitariya nazoratidir.

***-tashkiliy – uslubiy faoliyati:***

-sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi qonunchilikning asoslari va sog‘liqni saqlash organlari va muassasalari faoliyatini belgilab beruvchi direktiv hujjatlar, davlat huquqi asoslarini bilishi lozim;

-aholi salomatligini tavsiflovchi asosiy mezonlar va ko‘rsatkichlarni bilishi lozim;

-O‘zR sanitariya – epidemiologiya xizmatining nazariy va tashkiliy asoslarini bilishi lozim;

-O‘zR sanitariya – epidemiologiya xizmatining turli bo‘linmalari va darajalarining tashkiliy tuzilmasi, shakllari va usullari, lavozimga oid majburiyatlarini bilishi lozim;

-sanitariya – epidemiologik va tibbiy – profilaktik muassasalarning faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarni bilishi lozim;

-sanitariya – epidemiologiya xizmati xodimlarini ular faoliyatining mazmuni, huquq va majburiyatlari, yuqori tashkilotlarning buyruq va farmoyishlari va boshqalarga tegishli bo‘lgan operativ ma’lumotlar bilan ta’minlash va ushbu ma’lumotlarga ega bo‘lish;

-amaliy faoliyatda asosiy me’yoriy – uslubiy hujjatlar va gigienik normativlarni (SanQvaM, QMvaQ, DavST, Tasniflar, O‘zR SSV eng muhim buyruqlari) qo‘llay olish;

-aholi salomatligining holati va sanitariya – epidemiologik muassasalar faoliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash va baholay olish;

-ma’muriy ta’sir etuvchi dalolatnomalarni tuzish, shikoyatlarni tekshirish, matbuot va boshqalarning sanitariya – epidemiologiya xizmatiga tegishli bo‘lgan chiqishlariga javob bera olish;

-aholining sanitariya – epidemiologik xotirjamligini ta’minlashda sanitariya – epidemiologiya va davolash – profilaktika xizmatlari bo‘linmalari, hamda fuqarolarning o‘z – o‘zini boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining izchil ekanligining nazoratini olib borish;

-sanitariya – epidemiologiya xizmati muassasalarining istiqbolli, yillik, qamrovli va operativ rejaları hamda tibbiy – profilaktika yo‘nalishidagi vrachlarning individual faoliyatini ishlab chiqishda ishtirok etish;



-vrachlar, o'рта va kichik tibbiyot xodimlari malakasini oshirish ishlarini tashkil etish va olib borishda ishtirok etish;

-sog'liqni saqlash sohasida zamonaviy ilm – fan yutuqlari hamda davlat siyosatini hisobga olgan holda mehnatni ilmiy jihatdan tashkil etish (MIT), profilaktikaning yangi shakllari va usullarining tadbiq etilishini ta'minlash;

-nazorat ostidagi ob'ektlar (ovqatlanish, bolalar hamda o'smirlar muassasalari va boshqalar) xodimlarining sanitariya minimumi bo'yicha kursga oid tayyorgarligini tashkil etish;

-sanitar epidemiologik xizmat (SEX) ko'rsatuvchi ma'muriy hududdagi sanitariya – epidemiologik va ekologik vaziyat to'g'risida hokimiyatlar hamda hokimiyatning boshqa organlarini xabardor qilish;

-aholi salomatligi va atrof – muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan profilaktik chora – tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazilishini taklif etish;

-sanitariya – epidemiologiya xizmatiga qarashli ma'muriy tashkilotlar faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va ularga konsultativ yordam berish;

-sanitariya – epidemiologiya xizmati muassasalarida hisobga olish va hisobot hujjatlari to'ldirilishining nazoratini olib borish hamda sanitar epidemiologik xizmat (SEX) yillik hisobotlarini qabul qilish va tahlil etishda ishtirok etish.

**-tibbiy – ijtimoiy faoliyati:**

-ijtimoiy – gigienik, tibbiy – demografik va ijtimoiy – ruhiy omillarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhofaza qilish organlari hamda mehribonlik xizmatlari bilan birgalikda aholiga xizmatlar ko'rsatish;

-kelajakda bashorat qilinuvchi epidemiologik, ekologik va ekstremal vaziyatni hisobga olgan holda infeksiyon, noinfeksiyon va kasbiy kasallanishlar darajasini baholashga yo'naltirilgan shoshilinch va rejali sanitariya - profilaktik, tibbiy – ijtimoiy va sanitariya – epidemiologik chora – tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

-xavf omillarini aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha sog'lomlashtirish choralarni ishlab chiqish maqsadida nogironlar (eshituv, ko'ruv va boshqa a'zolarining holati bo'yicha mehnat qobiliyati chegaralangan) mehnatidan foydalanuvchi mehnat va ijtimoiy muhofaza tizimining ishlab chiqarish ob'ektlarini sanitariya va epidemiologik tekshiruvlarida ishtirok etish.

**- psixologo-pedagogik faoliyati:**

-aholi orasida umumiy gigiena to'g'risida suhbatlar, psixo-profilaktik darslar olib borish;

-alkogolizm, narkomaniya, chekishni oldini olish uchun chora-tadbirlar olib borish;

-kritik vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish;

**- tashkiliy-boshqaruv faoliyati:**

-birlamchi bo'g'inlarda tibbiy xodimlarning mehnatini tashkil etish, funksional majburiyatlarni va ularni amalga oshirishning optimal algoritmini aniqlash;

-mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha tadbirlarni uyushtirish, kasbiy kasalliklarni profilaktika qilish, ekologiya xavfsizligiga amal qilish va uni ta'minlash ustidan nazorat qilish;



- birlamchi bo'g'inlarda hisob yuritish-hisobot berish bo'yicha tibbiy hujjatlarni yuritish;
- birlamchi bo'g'inlarda aholiga profilaktika yordami ko'rsatish sifatini nazorat qilish;
- ish bo'yicha yozishmalar (xizmatdagi xatlar, tahliliy materiallar, xatlar) ni yuritish;

#### **4.2. Profilaktika, diagnostik va boshqa tadbirlarning o'tkazilishi ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati:**

##### **Vrach gigienist-epidemiologning profilaktika diagnostik va boshqa tadbirlarini o'tkazilishi ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati:**

Vrach gigienist-epidemiolog yuqumli va parazitar kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishiga yo'l qo'yimaslik, kasb kasalliklari, zaharlanishlar va baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini shifokorlari bilan birgalikda profilaktik tadbirlarni ishlab chiqadi va o'tkazadi. Vrach gigienist-epidemiolog yuqumli va parazitar kasalliklar o'chog'larida karantin-tashkiliy va profilaktik tadbirlarni o'tkazish, kasallikka chalingan bemorlarni kasalxonalarga o'z vaqtida yotqizish tartibi va muddatlarini nazorat qiladi.

##### **Gigienist-epidemiolog vrachining tibbiy-profilaktika sohasidagi faoliyati quyidagi ob'ektlarda olib boriladi:**

- Aholi (umumiy, har xil yoshda va jinsda hamda ijtimoiy-kasbiy guruhlarda);
- Atrof-muhit va ishlab chiqarish ob'ektlari, ovqatlanish, ta'lim va tarbiya, yuqumli kasalliklar manbalari va hokazolar.

Vrach gigienist-epidemiolog tibbiy-profilaktika sohasidagi faoliyatini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boradi:

##### **1. Kommunal gigiena:**

1.1. Muayyan hududlarda atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarni aniqlash maqsadida davlat sanitariya nazoratini bilish;

1.2. Yopiq xonalar xavosi ko'rsatkichlarini, aholi yashash joylaridagi fizik omillarni (shovqin, tebranish, elektromagnit maydon) o'lchash va ifloslanganligini baholashda nazorat-o'lchov asbob-uskunalarni ishlash prinsiplarini bilish;

1.3. Sanitariya-kimyoviy va bakteriologik tekshiruvlar uchun atrof-muhit omillaridan namunalarni olishni bilish, natijalarni tahlil qilish va sanitariya-epidemiologik vaziyatga gigienik baho berishni bilish.


##### **2. Mehnat gigienasi:**

2.1. Ishlab chiqarish ob'ektlarida sanitariya epidemiologiya nazoratini asosiy vazifa va yo'nalishlarini aniqlovchi qonuniy va direktiv xujjatlarni bilish;

2.2. Mehnatni ilmiy tashkillashtirish va ergonomikaning asosiy tushunchalar va vazifalarini, mehnat gigienasi va fiziologiyasidagi metodologik prinsiplarini bilish;

2.3. Zararli ishlab chiqarish omillarini (shovqin, tebranish, chang, noqulay mikroiklim, kimyoviy omillar)ni o'lchash uchun laborator-instrumental asboblarni ishlash prinsiplarini bilish;

2.4. Inson organizmining asosiy funksional holatini anatomo- fiziologik va yoshiga nisbatan me'yorini bilish va bu me'yorni mehnat jarayonida ishlovchilar organizmiga zararli va xavfli omillar ta'sirini baholashni mehnat faoliyati davomida tadbiq qilishni bilish;





2.5. Ishlab chiqarishda yoritilganlik va ventilyasiya tizimlariga qo'yiladigan gigienik talablarni bilish;

### **3. Ovqatlanish gigienasi:**

3.1. Oziq-ovqat mahsulotlari (oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat korxonalari – non tayyorlash kombinatlari, go'sht, sut va qandolat mahsulotlari tayyorlash korxonalari va boshqalar) bilan bog'liq umumiy ovqatlanish va savdo korxonalarini dislokatsiyalarini aniqlash va tuzish;

3.2. Ob'ektlarning sanitariya nazoratida (OSN va JSN davomida) shamolatish, markazlashtirilgan ichimlik suvi ta'minoti, isitish tarmoqlari, kanalizatsiya, tabiiy va sun'iy yoritilganlikka qo'yiladigan gigienik talablarni bilish, ularni aniqlay olishni hamda gigienik baholash va xulosa berishni bilish;

3.3. Organizmda moddalar almashinuvining asosiy mexanizmlarini bilish va uning yosh-jins, klimato-geografik, kasbga bog'liq aspektlari inobatga olgan holda ahamiyatini bilish;

3.4. Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini baholash usullarini, shuningdek sanitar-mikrobiologik asoslarini bilish.

### **4. Bolalar va o'smirlar gigienasi:**

4.1. O'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligini himoyalash va saqlashda foydalaniladigan asosiy qonuniy va me'yoriy hujjatlarni bilish;

4.2. Bolalar va o'smirlar gigienasi sohasida davlat sanitariya nazorati ostidagi muassasalarni aniqlash: maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, kollejlari, akademik litsey va litseylar, yozgi sog'lomlashtirish maskanlari, maktabdan tashqari muassasalar va b. bilish;

4.3. Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash, o'qitish va kun tartibini tashkil qilishni o'rganish va tahlil qilish va olingan natijalarni gigienik baholashni bilish;

4.4. Davlat sanitariya nazoratidagi ish yurituvchi muassasalar ustidan sanitar-gigienik va epidemiologik nazorat va monitoring olib borishni bilish.

### **5. Radiatsion gigiena:**

5.1. O'zbekiston Respublikasi sanitariya epidemiologiya xizmati (SEX) faoliyati hamda davlat sanitariya nazorati o'tkazishning huquqiy va tashkiliy aspektlarini bilish;

5.2. SEX radiatsion gigiena bo'limi tuzilmasi va bo'limda ishni tashkillashtirishni bilish;

5.3. Dozimetriya va radiatsion xavfsizlikning fizikaviy asoslarini (spektrometriya, radiokimyoviy tahlil asoslarini) bilish;

5.4. Ionlantiruvchi nurlanishlarning inson organizmiga ta'sir etish asoslarini va radioaktiv jarohatlarning klinikasini bilishi, hamda undan shifokorlik faoliyatida foydalana bilish;

5.5. Radiatsion gigiena sohasi bo'yicha me'yoriy – uslubiy, qonuniy hujjatlarni (SanQ va M, QMQ, Davlat standartlari, gigienik me'yorlar) bilish va ulardan ob'ektlarda sanitariya nazoratini o'tkazishda foydalanishni bilish;

5.6. Radioaktiv moddalar va boshqa turdagi ionlantiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlaganda mehnat gigienasining asoslarini bilishi va davlat sanitariya nazoratini o'tkazishni bilish;



5.7. Aholining radiatsion xavfsizlik va atrof-muhitni radioaktiv ifloslanishdan muhofaza qilish, hamda radiatsion xavfsizlikning asoslarini bilish;

5.8. Radiatsion xavfsizlikning gigienik masalalari hamda avariya va ekstremal vaziyatlarda radiatsion xavfsizlikni ta'minlash, talofatlarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni bilish;

5.9. Radiatsion xavfsizlik masalalari bo'yicha sanitar-oqartuv ishlarini o'tkazish usullari va shakllarini bilish;

5.10. Radiatsion gigiena sohasidagi asosiy masalalarni (tibbiyotda, ishlab chiqarish korxonalarida, radionuklidlarni tashyiq qilishda, radioaktiv chiqindilar bo'yicha muammolarda, yadroviy reaktorlardagi radiatsion xavfsizlik va b.q.) bilish;

5.11. Radiatsion va yadroviy avariya oqibatlarini bartaraf etish va ularning oldini olish masalalarini bilishi kerak;

## **6. Epidemiologiya:**

6.1. Atrof-muhitning sanitariya-epidemiologik holati va ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan bog'liq holda epidemiologiya, dezinfektologiya va parazitologiya asosiy muammolarini bilish;

6.2. Yuqumli kasalliklar bilan kasallanishning oldini olish va uni kamaytirish bo'yicha umumkasbiy vazifalarning asosini bilish;

6.3. Yuqumli kasalliklarni bartaraf etish borasida, epidemiologiya qonun va kategoriyalari hamda profilaktika prinsiplarini bilish;

6.4. Immunoprofilaktika vositalari orqali boshqariluvchi yuqumli kasalliklarda epidemiologik vaziyatni, immunoprofilaktikani o'tkazish sifatini baholashni bilish;

6.5. Epidemik jarayon rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish;

6.6. Ob'ektlar, muassasalarda Davlat Sanitariya-epidemiologiya nazoratining o'ziga xos xususiyatlarini bilish;

6.7. Shahar va qishloq sharoitlarida ishlovchilarning epidemiologik xotirjamligini saqlashda ularga profilaktik yordam ko'rsatishni bilish;

6.8. Bakteriologik tekshiruv materiallarini ekish usullarini bilish va mikroorganizmlarni biologik mikroskopda aniqlashni bilish;

## **7. Bakteriologiya:**

7.1. O'zbekiston Respublikasi sanitar-epidemiologik tizim va davolash profilaktika muassasalarida olib boriladigan ishlarning uslubiy jihozlarini va bakteriologik xizmatni tashkillashtirishning asosiy sabablarini bilish;

7.2. Bakteriologik laboratoriyalar ish tartibi va ish xavfsizligini ta'minlash, xavf tug'ilgan holatlarda laboratoriyani yuritish qoidalarini, bakteriya kulturalarini va ularning toksinlarini saqlash, qabul qilish va yuborish tartiblari haqidagi bilimga ega bo'lish;

7.3. Umumiy va xususiy mikrobiologiya tushunchalarini, mikroorganizmlar taksonomiya va klassifikatsiyasi prinsiplarini, immunologiya muammolari, immunitet mexanizmlari, infeksiya haqida ta'limot, epidemiologiya asosiy masalalari va



infeksion kasalliklar profilaktikasi, yuqumli kasalliklar patogenezi va klinik kechishi xaqida bilish;

7.4. Sof kulturani ajratish va o'sgan kulturalarning miqdoriy va sifat xususiyatlarini bilish, taksonomik joylashuvini aniqlash uchun zarur testlarni tanlash va natijani interpretatsiya qilishni bilish;

7.5. Yuqumli kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishida mikroorganizmlarni ahamiyatini bilish;

7.6. Insonlarning yashash sharoiti, xo'jalik suv ta'minot ob'ektlari, kommunal xo'jalik, davolash-profilaktik muassasalarini sanitar-epidemiologik nazorati mikrobiologik prinsiplarini bilish;

7.7. Zamonaviy asbob-uskunalarda mikroorganizmlarni ajratish va identifikatsiya qilishni prinsiplarini bilish (IFA, PZR, immunoxromatografiya va b.).

## **5. VRACH GIGIENIST-EPIDEMIOLOG EGA BO'LISHI SHART AMALIY KO'NIKMALAR**

**Vrach gigienist-epidemiologga quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:**

### **5.1. Kommunal gigiena**

5.1.1. Turli aholi turar joylari binolariga qo'yiladigan gigienik talablarni bilish, sanitariya tozalash tizimini (maishiy va ishlab chiqarish chiqindilarini yig'ish, vaqtinchalik saqlash, yo'qotish, zararsizlantirish) va ular ustidan sanitariya nazoratini o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.1.2. Aholi turar joylarini gigienik rejalashtirish bo'yicha me'yoriy-uslubiy xujjatlarni bilish, ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazorati o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.1.3. Ob'ektlarning sanitariya nazoratida shamollatish, markazlashtirilgan ichimlik suvi ta'minoti, isitish tarmoqlari, kanalizatsiya, tabiiy va sun'iy yoritilganlikka qo'yiladigan gigienik talablarni bilish, ularni aniqlay olish, gigienik baholash va xulosa berish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.1.4. Muayyan hududdagi kommunal ob'ektlarni aniqlash va aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi ta'minlanishi ustidan belgilangan tartibda sanitariya nazoratini olib borishi lozim (atmosfera havosi, suv, tuproq; yashash va jamoat binolari, sport inshootlari, madaniy-maishiy muassasalar, maishiy xizmat muassasalari, davolash profilaktika muassasalari, aholi yashash joylarini arxitektura-rejalashtirish masalalarini hal qilish) ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.1.5. Ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarida sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiena normativlariga rioya etilishi ustidan sanitariya nazoratini amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.1.6. Qurilish uchun er uchastkalari berish, xo'jalik va maishiy maqsadlarda suvdan foydalanish joylarini hamda oqova suvlar tozalanganidan keyin ularni tushirib yuborish shartlarini aniqlash, zaharli, kimyoviy, radioaktiv moddalarni va boshqa moddalarni utilizatsiya qilish hamda ko'mib tashlash masalalari bo'yicha takliflar va xulosalar berish ko'nikmasiga ega bo'lish;



5.1.7. Inshootlarning, turar joylarning, davolash-profilaktika, maishiy va madaniyat, sport muassasalarining xamda boshqa muassasalarning asosiy va yordamchi xonalarini sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiena normativlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.1.8. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash sohasida aholi yashash joylarida atrof-muhit omillarni laboratoriya o'lchov asboblari yordamida nazorat qilish usullarini qo'llash va ularning monitoringini olib borishni qo'llash, bajara olish;

5.1.9. Atrof-muhit omillarining o'lchov nuqtalar bilan belgilangan grafik sxemasini tuzish va laborator tekshiruvlar uchun suv, tuproq, atmosfera xavosidan namunalar olishni qo'llash va bajara olish;

5.1.10. Atrof-muhit omillarining inson organizmiga ta'sirini baxolash, tahlil qilish, epidemiyaga qarshi sanitariya-gigienik chora- tadbirlar ishlab chiqishni qo'llash va bajara olish;

5.1.11. Kommunal ob'ektlarda faoliyat ko'rsatayotgan aholining salomatlik holatini ishlab chiqarish omillari bilan bog'liq holda o'rganishni qo'llash va bajara olish;

5.1.12. Nazorat ostidagi ob'ektlarda sanitariya-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va dinamik monitoringini olib borishi qo'llash va bajara olish;

5.1.13. Nazorat ob'ektlariga qo'yiladigan talablar: sanitariya me'yorlari va qoidalari, qurilish me'yorlari va qoidalari, epidemiyaga qarshi talablar haqida soha xizmatchilari va aholi orasida seminarlar, treninglar tashkil etish, o'tkazish va ularning tibbiy, sanitariya-gigienik bilimlarini oshirini qo'llash va bajara olish.

## **5.2.Mehnat gigienasi**

5.2.1. Nazorat ostidagi ishlab chiqarish ob'ektlarida me'yoriy – uslubiy qonuniy xujjatlarni, mehnat sharoiti va mehnatni reglamentlashtiruvchi qonunlarni amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.2.3. Pestitsidlarni qo'llashda atrof-muhit omillariga va ishchilar salomatligiga ta'sirini oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.2.4. Qurilish uchun er maydonini tanlab olishda, hamda sanitar texnik moslamalarni (ventilyasiya, yoritilganlik) loyiha materiallarini sanitar ekspertizadan o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.2.5. Ishlab chiqarishda yoritilganlikni sanitariya tekshiruvidan o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.2.6. Ventilyasiyani turi va tizimini gigienik nuqtai nazardan to'g'ri tanlanganligini baholash, ishlab chiqarishda ventilyasiya unumdorligini va samaradorligini aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.2.7. Shaxsiy himoya vositalarini qo'llash, zararsizlantirish va saqlanishni nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.2.8. Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish bo'yicha kasallanishni o'rganish, asosiy ko'rsatkichlarni hisob – kitob qilish va sog'lomlashtirish chora tadbirlari ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lish;



5.2.9. Nazorat ostidagi hududdagi ishlab chiqarish ob'ektlarida sanitariya tekshiruvini o'tkazish va zararli va xavfli omillarni aniqlash usullarni qo'llash va bajara olish;

5.2.10. Nazorat ostidagi ob'ektlarda zararli va xavfli (fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik) omillarning ta'sirini oldini olish, ishlovchilarda vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib keluvchi kasallanishni o'rganish, ishlab chiqarishda charchashni oldini olish choralarini qo'llash va bajara olish;

5.2.11. Hisobot va operativ tibbiyot xujjatlari (dalolatnoma, xulosa, bayonnoma, ishchilardan va aholidan tushgan shikoyatlarni, so'rovnoma ma'lumotnoma va boshqalar)ni to'ldirishni qo'llash va bajara olish;

5.2.12. Ishchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, ishchilar o'rtasida gigienik o'quv kurslari o'tkazish va tashkil qilishni qo'llash va bajara olish;

5.2.13. Nazorat ostidagi ishlab chiqarish ob'ektlarida sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun monitoring olib borishni qo'llash va bajara olish;

5.2.14. Nazorat ostidagi ob'ektlarida ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratiga qo'yiladigan gigienik talablar: sanitariya me'yorlari va qoidalari, qurilish me'yorlari va qoidalari, epidemiyaga qarshi chora tadbirlar haqida shu sohada xizmatchilar orasida seminarlar, treninglar tashkil etish, o'tkazish va ularning tibbiy, sanitariya gigienik bilimlarini oshirishni qo'llash va bajara olish.

### **5.3.Ovqatlanish gigienasi**

5.3.1.Amaldagi sanitar me'yor va qoidalarini va boshqa me'yoriy xujjatlarni, davlat standartlari, sanitar epidemiologik nazoratda turuvchi ovqatlanish obektlaridagi texnologik jarayon haqida ma'lumotga ega bo'lish;

5.3.2.Umumiy ovqatlanish va savdo korxonalari, oziq-ovqat korxonalarini sanitar gigienik tekshirishda sanitar-gigienik, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar va sanitariya gigiena talablarni qo'llay olish;

5.3.3.Aholining turli qatlamlari, turli xil kasbiy guruhlarda ozuqa moddalarning energetik quvvati, organizm uchun kerak bo'lgan optimal, minimal va fiziologik me'yorlarni bilish va O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun me'yoriy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishni bilish;

5.3.4.Ob'ektlarning sanitar holatini baholashda ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotini hisobga olgan holda zamonaviy usul va uslublardan foydalanish;

5.3.5. Tashqi muhit zararli omillarining qishloq xo'jaligi xom-ashyosiga, ozuqa moddalarning biologik xususiyatlariga, ozuqaviy qiymatiga, shifobaxshlik xususiyatlariga salbiy ta'sirini bilish;

5.3.6.O'z hududidagi ovqatlanish obektlarida sanitar gigienik nazoratni olib borish va o'tkazishda kerak bo'lganda zarur xujjatlarni (dalolatnoma, ma'lumotnoma, xat, bayonnomalarni) to'ldirishni bilish;

5.3.7.Umumiy ovqatlanish korxonalari va savdo tarmoqlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini tekshirish, gigienik va epidemiyaga qarshi ko'rsatkichlarni aniqlashda laborator va instrumental tekshiruv ishlarini o'tkazishni bilish;

5.3.8.Foydalanishga topshirilayotgan ovqatlanish obektlarida aniqlangan zararli



ta'sirlarni grafik ko'rinishda belgilashni bilish;

5.3.9. Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari quvvatmandlik darajasi va tarkibidagi A va S vitaminlari miqdorini aniqlashni bilish;

5.3.10. Bakteriologik tekshiruvlarni o'tkazish uchun oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarini asbob-uskunalardan, xodimlar va ishchilar qo'llaridan surtma olish uslubini bilish;

5.3.11. Oziq-ovqat mahsulotlaridan bakteriologik, kimyoviy, sanitar-gigienik tekshirishlar olib borish maqsadida namunalarni olish tartibini bilish;

5.3.12. Ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni oldini olish: ovqatdan zaharlanish, gijja kasalliklarining klinik belgilarini baholash va ularga qarshi olib boriladigan chora-tadbirlarini bilish;

5.3.13. Ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan aholining turli yosh guruhlari (kasbiy yosh-jins) orasida ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarini oldini olish usul va uslublarini bilish;

5.3.14. Ommaviy ovqatdan zaharlanish bo'lganda manba joyini aniqlash va nazorat qilishda qatnashish, zaharlanishni to'xtatishga va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish, yangi ovqatdan zaharlanish o'choqlarining paydo bo'lmasligiga oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazishni bilish;

5.3.15. Sog'lom va bemor odamlarning sog'lom ovqatlanish asoslarni bilish va sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llashni bilish;

5.3.16. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda pestitsidlarni qo'llashni nazorat qilish, qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida qoldiq miqdorini belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlarni oshib ketishini oldini olishni nazorat qilish;

5.3.17. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ozuqa qo'shimchalarni belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlarda oshib ketmasligini nazorat qilish;

5.3.18. Oziq-ovqat korxonalarini ishchilarini dastlabki va davriy tibbiy ko'riklar o'tkazish va ishchilarni muntazam tekshiruvlardan o'tishlarini nazorat qilish;

5.3.19. Oziq-ovqat mahsulotlarini sanitar-gigienik tekshiruvlardan o'tkazish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va tarqatishda sanitar-gigienik va epidemiologik ko'rsatkichlarga rioya qilinayotganligini aniqlash;

5.3.20. Shaharning seliteb mintaqasida oziq-ovqat korxonalariga ajratiladigan er maydonlarining sanitar-gigienik xulosalar berish va ogohlantiruvchi sanitariya nazoratini o'tkazish;

5.3.21. Nazorat ostidagi ovqatlanish ob'ektlarida sanitar-gigienik tekshirish o'tkazish;

5.3.22. Nazorat ostiga olingan ob'ektlarda olib borilgan tekshiruvlar asosida hisob-kitob va tezkor hujjatlar (dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, bayonnomalar, xulosalar va b.) ni tuzish;

5.3.23. Oziq-ovqat ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish va savdo korxonalarini ishchilarining salomatlik holatini o'rganish;

5.3.24. DSN ostidagi ob'ektlarda sanitar-gigienik va epidemiologik nazorat o'rnatish va ularning faoliyatini monitoring o'tkazishda ishtirok etish;

5.3.25. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini olib borish va bunda sog'lom ovqatlanishning organizmda tutgan o'rni haqida tushuntirish ishlarini olib borish.



## 5.4. Bolalar va o'smirlar gigienasi

5.4.1. Bolalar va o'smirlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlarini aniqlash, bolalar va o'smirlarni tarbiyalash, to'liq gigienik sharoitlarga moslashuvini baholash usullari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.2. Jismoniy rivojlanish standartlarini bilish, bolalar o'smirlarni yoshi va jinsiga ko'ra jismoniy qobiliyatini baholash usullari va ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.3. O'smirlarni ishlab chikarish jarayonida ishlash qobiliyatini aniqlash va charchashni oldini olish choralarini ishlab chiqish va ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.4. Shahar va qishloq xududlarida bolalar va o'smirlarga tibbiy xizmatni tashkil qilish shakllari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.6. Sanitar gigienik sharoit va epidemiologik vaziyatga ko'ra bolalar va o'smirlarni rivojlanish xususiyatlari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.7. Bolalar va o'smirlarni asosiy faoliyat turlarini gigienik va fiziologik xususiyatlarini bilish va ularni tadqiqot qilish usullari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.8. Tashkilashtirilgan bolalar muassasalarida keng tarqalgan yuqumli va yuqumli kasalliklarni etiologiyasi va patogenezini bilish va ularni erta aniqlash maqsadida profilaktik chora-tadbirlarni olib borish ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.9. Kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish va tashkil qilishni asosiy mezonlarni ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.10. Tashkilashtirilgan turli ta'lim muassasalarida (MTM, maktab, akademik litsey va litsey, kollej) bolalar va o'smirlar salomatligini o'rganishni asosiy usul ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.11. Sanitariya nazorati ob'ektlarida sanitar tekshiruvini amalga oshirish, asosiy xavf omillarni aniqlash va reja-topshiriqlarni tuzishni bilish;

5.4.12. Sog'lomlashtirish maskanlari atrof-muxit holatini sanitar tekshiruvini amalga oshirish va sanitar xulosa berish;

5.4.13. Bolalar va o'smirlar muassasalarida atrof-muhit holatini aniqlash usullaridan foydalanish va bajara olish (mustaqil yoki SEX laboratoriyasini jalb qilgan holda);

5.4.14. Ichki va tashqi muhit omillaridan namuna olish nuqtalarini va grafik sxemasidan foydalanish va bajara olish;

5.4.15. Bolalar va o'smirlar muassasalarida nazorat sanitar tekshiruv o'tkazishni amalga oshirish va asosiy xavfli omillarni aniqlash va ularni me'yoriy miqdorgacha kamaytirish choralarini ishlab chiqishni foydalanish va bajara olish;

5.4.16. Nazorat ob'ektlarida gigenik, epidemiologik vaziyat va kasallanish holatini tahlil qilish va tashqi muhit omillarini sog'lomlashtirish, jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini yaxshilash, kasallanishini kamaytirish, ishlash qobiliyatini oshirishni chora-tadbirlarini ishlab chiqib foydalanish va bajara olish;

5.4.17. Bolalar va o'smirlar muassasalarida turli fasllarda va kunning turli vaqtlarida mikroiklim va yoritilganlik ko'rsatkichlarini aniqlash va gigienik baholash foydalanish va bajara olish;

5.4.18. Bolalar muassasalarida ovqat tayyorlash va qabul qilish xonalarida sanitar tekshiruvini amalga oshirish va taomnomaga gigenik baholash foydalanish va



bajara olish;

5.4.19. Bolalar va o'smirlar uchun sog'lom ovkatlanish tavsiyalarini tuzish ko'nikmaga ega bo'lish;

5.4.20. Bolalar va o'smirlar muassasalarini axoli yashash mintaqalarida er maydonida joylashtirilganligiga sanitar gigienik baholash foydalanish va bajara olish;

5.4.21. Bolalar va o'smirlar muassasalarini qurish loyihasini, jihozlarini, o'yinchoqlarini gigenik ekspertizasini amalga oshirish, foydalanish va bajara olish;

5.4.22. Bolalar va o'smirlar muassasalari xodimlari va mehnat ta'limi jarayonida o'smirlarni birlamchi va joriy tibbiy ko'rikdan o'tishini tashkillashtirish va nazorat qilish;

5.4.23. Ogohlantiruvchi va joriy davlat sanitariya nazorati natijalarini rasmiylashtirish va turli me'yoriy hujjatlarini tuzishni bilish (ma'lumotnomalar, dalolatnomalar, bayonnomalar to'ldirish) foydalanish va bajara olish;

5.4.24. MTM ishlovchi tarbiyachilar orasida salomatlik darajasini o'rganish va ularni ish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlar foydalanish va bajara olish;

5.4.25. MTM va umumta'lim maktablarida ishlovchi ishchilar orasida sanitar-gigienik va epidemiologik nazorat bo'yicha seminar va treninglar o'tkazish foydalanish va bajara olish.

### **5.5. Radiatsion gigiena**

5.5.1. Xodimlar va aholining radiatsion xavfsizligini ta'minlash bo'yicha, barcha muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan radiatsion xavfsizlik sohasida sanitar-gigienik qoida va me'yorlarga rioya qilishni nazorat qilish uchun davlat sanitariya nazoratini o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

5.5.2. Radiatsion xavfsizlik masalalari bo'yicha mansabdor shaxslar va aholining sanitar bilimdonlik darajasini oshirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

5.5.3. Davlat sanitariya nazorati bo'yicha barcha tizimlarda yagona talablarning bajarilishini ta'minlashda SEX boshqa sohadagi mansabdor shaxslari bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;

5.5.4. Radioaktiv moddalar va boshqa turdagi ionlantiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlash, ularni saqlash va foydalanish huquqini beruvchi sanitar pasportlarni rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

5.5.5. Belgilangan tartibda sanitariya qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq radiologik ob'ektlarning loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

5.5.6. Ionlantiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlaydigan xodimlarning nurlanish yuklamalarini hisobga olishni, shuningdek radiatsion himoya sifatini gigienik baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi;

5.5.7. O'zining kompetensiya doirasida odam organizmida va atrof-muhit ob'ektlarida radionuklidlarning miqdorini tezkor usulda aniqlash, radionuklidlar bilan zararlangan oziq-ovqat mahsulotlari va suvni ekspertiza qilish, radioaktiv izlar bo'yicha radiatsion vaziyatni baholash usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;



5.5.8. Radiometrik va radiokimyoviy tekshirishlar uchun suv, havo, tuproq, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqa buyumlardan namunalarni olishni bajaradi;

5.5.9. Radiometrik va radiokimyoviy tekshirishlarni bajarish uchun preparatlar tayyorlash hamda radiometrik moslamalar va asboblarni yordamida preparatlarning aktivligini aniqlash va aktivlikni hisoblashni bajaradi;

5.5.10. Atrof muhit ob'ektlari va teri qoplamalarining radioaktiv ifloslanganlik darajasini aniqlashni bajaradi; gigienik nuqtai nazardan dezaktivatsiya usullarini to'g'ri tanlanganligini baholaydi; atrof muhit ob'ektlarining, xodimlarning qo'llari, maxsus korjomalari va ishchi yuzalarning dezaktivatsiya qilish sifatini tekshiradi;

5.5.11. Radioaktiv moddalar bilan ishlovchi ishchi xizmatchilarning salomatligini o'rganish va monitoringini olib borishni qo'llaydi va bajaradi;

5.5.12. Radioaktiv moddalar bilan ishlovchi ishchi-xizmatchilar orasida sanitariya-gigienik qoidalar va me'yorlarga amal qilish bo'yicha seminar-treninglar olib borishni qo'llaydi;

5.5.13. Ish yuritishga va faoliyatga oid va hisob-kitob hujjatlarini yuritishni biladi, ularni tahlil etadi va baholay oladi;

5.5.14. Radiatsion gigiena sohasiga taalluqli ob'ektlarda ishlovchi ishchi-xizmatchilar orasida sanitariya va gigienaga oid bilimlarni targ'ib qilish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tadbirlar o'tkazishda foydalanadi.

## **5.6.Epidemiologiya**

5.6.1. Tashqi muhit ob'ektlari, bemorlar va sog'lom kishilardan laboratoriya tekshiruvini uchun olinadigan materiallar va ularning miqdorini asoslab berish, tekshiruvlar o'tkazilishini tashkillashtirish va natijalarini baholash ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.2. Karantin chora-tadbirlari ko'zda tutilgan o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemiologik vaziyatni baholash hamda mavjud epidemiologik holatdan kelib chiqqan holda ijtimoiy va tibbiy chora-tadbirlarni asoslash ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.3. Zoonoz va sapronoz guruh infeksiyalarida epizootik va epidemik holat bo'yicha ma'lumotlar to'plash, ularning tahlilini o'tkazish va chora-tadbirlar ro'yxati hamda bajaruvchi shaxslarni belgilash ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.4. Antroponoz infeksiyalar ustidan epidemiologik nazorat yo'nalishlarini asoslash uchun ma'lumotlar yig'ishni amalga oshirish, davolash-diagnostik va boshqa epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.5. Yuqumli kasalliklarda shoshilinch profilaktika o'tkazilishini asoslash va tashkillashtirish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.6. Klinik yo'nalishdagi vrachlar bilan birgalikda yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida izolyatsiya-cheklovchi chora-tadbirlarni tashkillashtirish ko'nikmasiga ega bo'lish;



5.6.7. Tumanlar va aholi yashash punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlari yuzasidan takliflarni shakllantirish va tavsiya etishni o'rganish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.8. Nazorat ostida bo'lgan ob'ektlarning sanitariya-epidemiologik holatini o'rganish yuzasidan reja-topshiriqlarga takliflar kiritish, xalq xo'jaligi ob'ektlaridagi mehnat sharoitlarini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar takliflarini ishlab chiqish va o'tkazilishini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.9. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash, uni yaxshilash yuzasidan xulosalar, qarorlar, buyruqlar va boshqa ma'muriy hujjatlar ishlab chiqishni o'rganish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.10. Aholining epidemiologik bilimlarini oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha ishlar olib borishni o'rganish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.11. Yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish masalalarini hal qilish yuzasidan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, davolash-profilaktika muassasalari va boshqa muassasalar bilan hamkorlikda ishlar olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.12. Ommaviy zararlanish o'choqlarida (o'ta xavfli kasalliklarning epidemik avj olishlarida) aholini kasalliklardan himoya qilish va ularga tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil qilish va o'tkaza olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.13. Davlat epidemiologik nazoratini o'tkazishda sog'liqni saqlashning asosiy qonunchilik asoslari va rasmiy hujjatlaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.14. Bemorlardan va sog'lom shaxslardan laboratoriya tekshiruvi uchun olingan materiallarning hajmi va turini asoslay olish va olingan natijalarni baholay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.15. Bakteriologik tadqiqotlar uchun turli ob'ektlardan namunalarni tanlab olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.16. Nazorat ostidagi hudud aholisini emlanganligi to'g'risidagi malumotlarni baholay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.6.17. Nazorat obektlarida yuqumli kasalliklar o'choqlari (bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, litseylar, kollejlar, OTM va b.) davolash-profilaktika muassasalari (poliklinika, statsionarlar) sanitariya nazorat punktlari va boshqalarda epidemiologik nazoratni o'tkazish;

5.6.18. Turli tashqi muhit ob'ektlarining epidemiologik holatini baholash mezonlarini qo'llash;

5.6.19. Qaynatish yo'li bilan va avtoklavda sterilizatsiya qilishning samaradorligini aniqlash;

5.6.20. Yuqumli kasalliklar o'choqlarida va ovqatdan zaharlanish holatlarida epidemiologik tekshiruv o'tkazish va profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish;

5.6.21. Nazorat ostidagi muassasalarning epidemiologik holatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun material yig'ish;



5.6.22. Yuqumli zooantroponoz kasalliklarning tarqalish yo'llari va infeksiya manbalarini aniqlash;

5.6.23. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda aholining sanitariya madaniyatini oshirishda samarador usullardan foydalanish;

5.6.24. Yuqumli kasalliklarning shoshilinch va rejali emlash ishlarini o'tkazishda qatnashish;

5.6.25. Bemorlarni alohidalab qo'yish va chegaralash chora-tadbirlarini amalga oshirishda qatnashish;

5.6.26. Profilaktika maqsadida, epidemiologik ko'rsatmaga binoan dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya chora-tadbirlarini o'tkazishda qatnashish;

5.6.27. Epidemiologik nazorat natijalariga ko'ra, hisob-kitob va operativ hujjatlar (tekshiruv dalolatnomlari, epidemiologik tekshiruv kartalari, emlashni hisobga olish shakllari, deinfeksion chora-tadbirlar o'tkazish rejaları, shakllari)ni rasmiylashtirish.

## 5.7. Bakteriologiya

5.7.1. Bakteriologik tekshirish uchun materialning turi va hajmini aniqlash, uni olish muddatlari, sinamalarni saralash, muddatini belgilash va laboratoriyaga etkazishni tashkillashtirish, tekshiruv materialini saqlash sharoitini aniqlash haqida ko'nikmaga ega bo'lish;

5.7.2. Nativ materialni mikroskopik tekshirish, ekishning u yoki bu usullarini maqsadga muvofiqligini aniqlash, birlamchi ekish uchun kerak bo'ladigan optimal oziq muhitlarni tanlash va zarur bo'lganida ko'paytiruvchi muhitlarga ekish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.7.3. Bakteriyalar o'stirish uchun ozuqa muhitlarni tayyorlash, laboratoriya asbob-uskunalari bilan ishlash va sterilizatsiya usullarini qo'llash ko'nikmaga ega bo'lish;

5.7.4. Mikroorganizmlarni biologik xususiyatlarini baholash, ularni identifikatsiya qilish va antibiotiklarga sezgirligini aniqlash uchun metodik yondoshuvni tanlash ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.7.5. Yiringli yallig'lanish va anaerob infeksiyalar qo'zg'atuvchilari: stafilokokk, streptokokk, psevdomonas, klostridiya, korinebakteriya, bordetella, neysseriya, psevdomonada, pnevmokokklar, gemofill va mikobakteriyalar aniqlay olish ko'nikmaga ega bo'lish;

5.7.6. O'ta xavfli infeksiya qo'zg'atuvchilarini aniqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.7.7. Oziq-ovqat mahsulotlarini: umumiy ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini, savdo sotiq korxonalar mahsulotlarini, bolalar muassasalarini, sut oshxona mahsulotlarini, sutni qayta ishlovchi korxonalarini, spirtsiz mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.7.8. Eksperimental hayvonlarda mikroorganizmlar virulentligini aniqlash, hayvonlarda infeksiyon jarayonlarni keltirib chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5.7.9. Enterobakteriyalar avlodlarini: esherixiya, shigella, edwardsiella, salmonella, klebsiella, iersiniya, enterobakter, sitrobakter, protey va boshqalarni identifikatsiya qilish ko'nikmasini amalda qo'llay olish;



5.7.10. Tashqi muhitdan va odam organizmidan mikroorganizmlarni ajratish, sof kultura bilan ishlash, ularning aynan shu bemor sog'lig'iga va aholiga xavf darajasini aniqlash ko'nikmasini amalda qo'llay olish;

5.7.11. Aptekalar va dori vositalarini tekshirish, davolash profilaktika muassasalarida bakteriya tashuvchilarni aniqlash, jarrohlik va bog'lov materiallarini sterilligini tekshirish ko'nikmasini amalda qo'llay olish;

5.7.12. Tekshirilayotgan shaxs qon zardobini ajratib serologik reaksiyalarni bajarish, diagnostikaning ekspress usullarini va fagga sezgirligini aniqlash ko'nikmasini amalda qo'llay olish;

5.7.13. Bakteriologik tekshiruv natijalarni qayd qilish qoidalarini bilish va infeksiyon materialni zararsizlantirishni ta'minlash ko'nikmasini amalda qo'llay olish;

5.7.14. Yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni sanitar-epidemiologik nazoratini tashkillashtirish maqsadida adekvat mikrobiologik tekshirish usullarini aniqlash va qo'llay olish;

5.7.15. Tibbiyot mikrobiologiyasi sohasidagi yangi ma'lumotlarni tahlil qilish va qo'llay olish.

## **6. VRACH GIGIENIST-EPIDEMIOLOGNING MUNOSABATLARIGA QO'YILGAN TALABLAR**

Vrach gigienist-epidemiolog aholi, bemorlar, alohida jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatda vrach etikasi va deontologiyasi qoidalariga amal qilishlari lozim.

## **7. UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM VA VRACH GIGIENIST-EPIDEMIOLOGNING ATTESTATSIYASI**

Vrach gigienist – epidemiolog uzluksiz ravishda o'zining kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini muntazam tarzda mustaqil ta'lim olish yo'li bilan takomillashtirib borishi lozim. Vrachlar Malaka oshirish fakultetlarda va ish joylarida o'qitilishi mumkin. Ular sog'liqni saqlash boshqarmalari tomonidan tuman, viloyat va respublika miqyosida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslari va seminarlarda ishtirok etishlari mumkin. Vrach gigienist – epidemiolog o'z malakasini tasdiqlash uchun har 5 yilda kasbga oid attestatsiya imtihoni topshirishi lozim. Muvaffaqiyatli topshirilgan kasbiy attestatsiya imtihoni asosida litsenzion hay'at mehnat faoliyatini davom ettirish uchun litsenziya beradi yoki uzaytiradi.

### **Malaka tavsifnomasi tuzilishida quyidagi hujjatlar bilan ishlangan:**

1. O'tgan yillarning malaka tavsifnomalari.
2. Xalqaro X kasalliklarning tasniflash ma'lumotlari.
3. O'zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlarning vrach gigienist-epidemiolog sohasidagi olimlarning faoliyati.
4. JSST / YUNISEF materiallari.
5. Bir qator Internet saytlarining materiallari.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari  
ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent tibbiyot akademiyasi



rektori A.K.Shadmanov

2021 yil "06" 09

M.O'.

KELISHILDI:

Tibbiy ta'limni rivojlantirish  
markazi direktori

N.R.Yangiyeva

2021 yil "06" 09

M.O'.

Toshkent pediatriya instituti



rektori B.T.Daminov

2021 yil «04» 09

M.O'.

Fan va ta'lim boshqarmasi

boshlig'i A.T.Maxmudov

2021 yil "10" 09

M.O'.

Toshkent shahar sog'liqni saqlash

Bosh boshqarmasi boshlig'i



A.V.Alimov

2021 yil "10" 09

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash

vazirligi Sanitariya gigienai va kasb

kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti

Direktor v.b. R.Kamilova

2021 yil "09" 09

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi sanitarিয়া  
epidemiologiya osoayishtaligi va jamaot

salomtligi xizmati



Boshliq B.Yusupaliev

2021 yil «13» 09

M.O'.

